

# **Forish tuman Axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati**



**“FORISHNING MADANIY MEROS  
RO`YXATIGA KIRITILGAN  
ZIYORATGOHLARI”  
(O`lkashunoslikka qiziquvchan  
kitobxonlar uchun eslatma)**

**Forish-2026 yil**

Mazkur eslatma tumanimiz hududida mavjud bo'lgan ziyoratgohlar haqida kitobxonlar, yoshlar va keng jamoatchilikka qisqacha ma'lumot berish, ularning tarixiy va ma'naviy ahamiyatini yoritish maqsadida tayyorlandi.

Unda tumanimizdagi muqaddas qadamjolar, ularning nomi, joylashuvi, tarixiga oid ma'lumotlar hamda xalqimiz orasida ular bilan bog'liq rivoyat va ma'lumotlar imkon qadar jamlangan. Ushbu eslatma orqali o'quvchilar va kitobxonlar o'zlari yashab turgan hududning tarixiy-ma'naviy boyliklari haqida yanada kengroq tasavvurga ega bo'lishlari mumkin.

Tayyorladi: Forish TAKM axborot-bibliografiya xizmat rahbari N. Artikova

## SO‘ZBOSHI

Yurtimiz qadimdan buyuk allomalar, aziz avliyolar va ma’rifatparvar insonlar yashab ijod qilgan, boy tarixiy va ma’naviy merosga ega bo’lgan tabarruk zamin sifatida e’zozlanib keladi. O‘zbekiston hududida joylashgan ko‘plab ziyoratgohlar, maqbaralar va muqaddas qadamjolar xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, urf-odatlar, milliy qadriyatlari hamda ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ziyoratgohlarni o‘rganish — nafaqat o‘tmishni bilish, balki ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlod qalbida Vatanga, tariximizga va milliy merosimizga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ziyoratgohlar ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati bilan bir qatorda madaniy meros va ziyorat turizmining muhim obyektlari sifatida ham qadrlanmoqda.

Umid qilamizki, ushbu eslatma tumanimizning tarixiy qadamjolari bilan yaqindan tanishish, ularning tarixini o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tarixini bilgan avlod — qadriyatlarini asraydi, qadriyatlarini asragan xalq esa kelajagini bunyod etadi.**

### 1. “Jondahor ota” ziyoratgohi

Rivoyatga ko‘ra, payg‘ambarzodalardan bo‘lgan Muhammad Sharifni (Mavlono Girehkusho) ustozlari bir oq tuyaga mindirib fotiha berib junatadilar. Tuyalari ushbu Jondahor ota manzilgohiga



“Жондахор ота” зiyorатгоҳи


kelib to`xtaydi va ul zot o`sha joyga ushib suvsiz joyga asolarini urib chashmani chiqaradilar, so`ngra ushbu joyda qo`nim topadilar.

Garashalik qishloq keksalari Umarxon bobo Ixtiyorov, Homid bobo Abdurahmonov, Rauf bobo Rashidov, Abdurahmon bobo Asrorov, Sulaymon obo Tovboevlar tomonidan saqlab kelingan juda ko`hna arabiy imlodagi ikki hujjat 2001 yilda Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligiga taqdim etilgan bo`lib, ular o`rganip chiqildi. Birinchi hujjatning orqasida muhr bor, ammo u kimning muhri ekanligini aniqlash imkoni bo`lmadi hujjatda keltirilgan sana 841 hijriy yil hisobi bo`lib, milodiy 1438 yil, ya'ni Movarounnahr poytaxti Samarqandda Sulton Mirzo Ulugbek hukmronlik qilayotgan davr edi... Unda, jumladan quyidagilar yozilgan: 841 hijriy yilida 12 rabi' ul avval oyida sulton (bu yerda Mirzo Ulug`bek nazarda tutilmoqda) tomonidan yozilgan guvohnomada mavlono Gavrisho - mashoyixlar mashoyixi yaqinlaridan bo`lmish muhtaram hoji Shamsiddin Muhammadga So`g`di Kalon mavzesidagi Marvaq qishlog`i suyurg`ol sifatida taqdim etilgan...

Ikkinchi hujjatda «909 hijriyda (1503 milodiy yili) mavlono Gavrisho avlodidan bo`lmish shaxsga... So`g`di Kalon tumanidagi qishloq va erlarni suyurg`ol tarzida taqdim etilgani» bayon etilgan.

## 2. “Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi

«Hazrati Eshon xalifa» tarixiy yodgorligi Andagin qishlogʻining oʻrta qismida joylashgan. Bu manzilni soʻnggi makon tutib, avliyolik maqomiga erishgan aziz zotning ismlari Jaloliddin ibn



“Ҳазрати Эшон Халифа” зиёратгоҳи

Abdukarim boʻlgan. Buxoroning oʻz davrida mashhur boʻlgan Mir Arab madrasasida oʻqigan, mukammal taʼlim olgan, zohiriy ilmlarni maroq bilan oʻrganganlar. Oʻz davrining donishmandi boʻlgan ushbu moʻtabar shaxs, odam va olam mohiyati ustida bir umr mushohada yuritgan, dunyoni mukammal, hayotni toʻkis, insonni barkamol koʻrishni orzu qilgan. Domla Jaloliddin Naqshbandiya tariqatini voha boʻylab keng tarqalishida xolis xizmat qilganlar.

Ziyoratgohni hozirgi hududi salkam 0,5 gektarni tashkil etadi. Tarixiy yodgorlik usti tom bilan yopilgan uchta xonadan iborat, uning ikkitasida sogʻona bor, uchinchisi chillaxona vazifasini bajargan. Ziyoratgoh hovlisida ajoyib buloq bor va moʻjazgina hovuz qurilgan. Chashma suvi shifobaxsh xususiyatlarga ega boʻlib, undan doimo toza zilol suv oqib turadi. Hovuzda relikt hisoblangan gulmohi baliqlari koʻp.

Asosiy binoga kirishdagi chap tomondagi xonada ayol kishini qabri joylashgan. Mahalliy aholi orasida ush «Hazrati Bibi Ro`shnoyi» nomi bilan mashhurdir.

Binoning o`ng tomonidagi xonada XIX asrda yashagan va mahalliy xalq orasida Eshoni xalifa nomi bilan mashhur bo`lgan, domla Jaloliddinning qabrlari joylashgan.

Ziyoratgoh hovlisida bir nechta qadimiy tut va yong`oq daraxtlari bor. Keksa bobotut daraxtining yoshi, taxminan 250-300 yilni tashkil etadi.

### **3.«Xonbandi» qadamjosi**

Xonbandi to`g`oni – O`zbekistonda qadimiy zamondan bizning davrimizgacha saqlanib kelgan to`g`ondir. U Jizzax viloyati Forish tumanidagi Band shaharchasi yaqinida joylashgan. Tadqiqotchi



“Хонбанди” қадамжоси

olimlarning fikri-taxminiy sanasi turli xil keltiriladi X asr, XVI asr, 1582 yil.

1973 yildan buyon respublika miqyosidagi yodgorlik sifatida davlat mudofaasida saqlanadi. To`fonning uzunligi 50 metrdan ziyod, pastidan 24 metr, balandligi 15 metrdan ziyod. To`g`on tekislangan rangdor koshinlardan maxsus suv ko`taruvchi aralashma yordamida terilgan.

Bundan ko`rinib turibdiki, XVII asrga kelibgina Paskal qonuni asosida shakllangan usuldan bundan necha yillar avvalrod Movaraunnahr mudandis-gidrotexniklari suyuqlik bosimini hisobga ola bilishgan.

To`g`onning g`arbiy qismidagi suv bo`shatmasida turli balandliklarda 9 ta konussimon shaklda yoriqlar qurilgan. To`g`on poydevori tepa qismidan 4 barobar qalinroq. Pastki qismining qalinligi 8 metr, tepasi 2 metr. Avvallari to`g`on o`zida uzunligi 1,5 km, kengligi 52 metrga, daraning boshlanish qismi 200 metrga teng suv omborini sadlagan. Bugungi kunda sun'iy suv omborining jomidan foydalanilmaydi, zero eng tepa qismiga qadar loyqa chiqindilar bilan to`lib, jarlikning tekis qismiga aylangan.

#### **4. «Xo`ja bog`bon ota» ziyoratgohi**



Mazkur ziyoratgohga Forish tumanining Qoratosh qishlog`idan burilib, tog` tomonga, dala yo`li bilan kirib boriladi. Ziyoratgohning asosini Xo`ja bog`bon ota g`oyib bo`lgan degan qarash mavjud bo`lgan g`or suvi yozda

muzdek qishda iliq bo`lib oqib turuvchi shifobaxsh buloq, qadimiy masjid binosi, bir nechta keksa-500 yoshli tut daraxtlari, shohbaliqlari mavjud bo`lgan hovuz hamda ziyoratgohning pastki qismida joylashgan qabr tashkil etadi.

Ziyoratgoh to`g`risida mahalliy aholi orasida bir qancha rivoyatlar saqlanib qolgan. Xo`ja bog`bon ota, bizningcha, asli Xo`ja bog`don, ya'ni bog`donlik xo`ja ma'nosini anglatadi.

Ziyoratchilar, asosan, farzandli bo`lish, yurak-qon tomir kasalliklaridan hamda turli xil teri kasalliklaridan forig` bo`lish maqsadida kelishadi.

## **5.«Narvon ota» ziyoratgohi**

Narvon qishlog`i Nurota tizma tog`ining janubiy dala-dashtlaridagi eng katta qishloqlardan bo`lib, Forish tumani hududida joylashgan. “Narvon ota” qabristonida qabrlar ustiga qo`yilgan beshik shaklidagi



“Нарвон ота” зиёратгоҳи

marmar toshlar va undagi yozuvlar qishloq tarixiga guvohlik beradi. Yozuvlar arab alifbosida bo`lsa-da, fors tilida yozilgan. 2003 yilda narvonlik Shakar Egamov iltimosiga ko`ra olimlar Faxriddin va Muzaffar eshonlar qabr toshlaridagi yozuvlarni o`qib, sharhlab berganlar.

1 qabrtoshda: «Qutlug` Xo`ja qizi bibi Qutlug` Tekin 77 yoshda bandalikni bajo keltirdi.»

2 qabrtoshda: «Shamsutdin Sayfutdin o`g`li 867 hijriy yilda qo`yildi.»

3 qabrtoshda: «Azoyil (yoki Azizbek) Qahholiy 860 payg`ambar hijratida vafot qildi.» Ziyoratgoh hududidagi g`or va uni paydo bo`lishi to`g`risida bir qancha rivoyatlar saqlanib qolgan.

## **6.«Xazrati Zaynulobiddin» ziyoratgohi**

Forish tumanining eng chekka, Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh hududda Mojurum qishlog`idagi ziyoratgoh. Ziyoratgoh to`g`risida, asli ushbu qishloqlik bo`lgan



Rustamjon Rahmatullozodaning «Ajdodlar merosiga ehtirom» deb nomlangan, 2006 yil «Fan» nashriyotida nashr etilgan risolasida bir qancha aniq ma'lumotlar berilgan.

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida saqlanayotgan «Xazinat ul-asfiyo» kitobida keltirilishicha, musulmon olamida ikki zot

Zaynulobiddin degan laqab olgan. Bu laqabni birinchi bo`lib hazrati Ali ibn Husayn ibn Ali Murtazo olganlar. U zotning kunyalari — Abulhasan, laqablari Zaynulobiddin bo`lib, 36 yoki 38 hijriy yilda Madinada tug`ilganlar, onalari bibi Shahribonu - Eron podshosi Yazdijardning qizi bo`lgan. Ikkinchi Zaynulobiddin degan laqabni olgan zot hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 24-avlodlari, ya'ni hazrat Alining 25-avlodlari, ismlari-Alouddin, laqablari-Zaynulobiddin Hazrati Zaynulobiddin ayni yigitlik davrlarida Nogur yo`lida otasining ko`z oldida yo`lto`sarlar qo`lida shahid bo`ladilar («Xazinat ul-asfiyo», 124-bet). Taqriban 895 yilda tug`ilib, 915 yillarda shahid bo`lganlar. «Xazinat ul-asfiyo»da keltirilishicha, Sayid Alouddin, Sayid G`avsul-a'zam Abdulqodir Jiloniyning 12-avlodlari hisoblanadi. Hazrat Abdulqodir Jiloniy hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 12-avlodlaridir.

## **7.«Hasan ota» ziyoratgohi**

Ushbu ziyoratgoh Forish tumanining markazidan dovon oshib Garasha qishlog`i tomon borishda shu nomdagi qishloq hududida joylashgan. Atrofi mevali daraxtlar bilan o`ralgan ziyoratgoh markazida qabr ustida mustaqillik yillarida bunyod etilgan ko`k gumbazli xonaqoh mavjud. Mutaxassislarning aytishicha, ziyoratgoh hududidagi tanasini uch odamning



qulochi yetmaydigan tut daraxtini yoshi to`rt yuz yildan oshar ekan. Shundan bilish mumkinki, «Hasan ota» ziyoratgohi vujudga kelgandan buyon kamida 4-5 asr vaqt o`tgani. Mahalliy aholining ta'kidlashicha, Hasan ota asli Qo`shrabot tumanida istiqomat qilgan mashhur eshonzodalarning avlodidir. Ziyoratchilar, asosan, farzandli bo`lish va ishlari omadidan kelishini istab kelishadi.


## **8.Teshiktosh chillaxonasi**

Mazkur muqaddas sanalgan g`or va teshiktosh Forish tumanining Andagin qishlog`ida joylashgan bo`lib, mahalliy aholi mazkur g`orni aziz avliyolar va ko`plab eshonzodalarning qadami yetgan muqaddas joy sifatida e'zozlashadi.

Bu yerda qadimdan chillaxona mavjud bo`lib Andagin qishlog`ida yashab o`tgan eshonzodalar ushbu g`orga teshiktosh orqali kirib qirq kunlab ibodat amallarini bajargan. Ushbu qadamjoni Andagin qishlog`idagi Hazrati Eshon Xalifa ziyoratgohi bilan bog`liq degan qarash mavjud.

## 9.Qizuchgan qadamjosi

Ushbu tabiat yodgorligi Forishning Sayyod qishlog'idagi qoyada joylashgan bo'lib, uni paydo bo'lishi to'g'risida mahalliy aholi orasida quyidagicha rivoyat saqlanib qolgan. Qadimda ushbu hududda yashagan bir qiz va yigit pir birlariga ko'ngil qo'yishadi. Qiz badavlat oiladan yigit esa bechorahol bo'lganligi sababli qizning oila a'zolari ularning oila qurishiga qattiq qarshilik ko'rsatib, qizning hattoki ko'chaga chiqishini ham ta'qiqlab qo'yishadi. Bir-biriga ko'ngil qo'ygan, ammo birga bo'la olmasliklarini bilgan yoshlar ushbu qoya oldiga kelib sakrashadi va qoyadan yigitning qoni oq, qizning qoni qizil rangda bo'lib shu-shu ushbu qoyada saqlanib qoladi. Mazkur voqea sabab qoyaning nomi ham qizuchgan qoyasi deb ataladi.



Qadamjoga asosan mavsumiy sayohatchilar tomosha qilish va dam olish uchun kelishadi.

## XULOSA

Tumanimiz hududida joylashgan ziyoratgohlar xalqimizning ko'p asrlik tarixi, boy ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan tabarruk maskanlardir. Ularning har biri o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ajdodlarimizning hayoti, faoliyati, ezgu amallari va

xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Mazkur eslatmani tayyorlash jarayonida tumanimizdagi ziyoratgohlar haqida ma'lumotlarni jamlash, ularning tarixiy va ma'naviy ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda yosh avlodni ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda tarixiy qadamjolarini asrab-avaylash, ularni obodonlashtirish, kelajak avlodga asl holida yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir. Ayniqsa, yoshlarning o'z hududidagi tarixiy obidalar va ziyoratgohlar haqida yetarli bilimga ega bo'lishi ularning milliy o'zligini anglashida katta ahamiyat kasb etadi.

Ziyoratgohlar — xalqimizning kechagi kuni, bugungi ma'naviy hayoti va ertangi avlodlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi bebaho merosdir. Ularni o'rganish, targ'ib qilish va asrab-avaylash orqali biz ajdodlarimiz xotirasini e'zozlagan, tariximizga hurmat bilan qaragan bo'lamiz.

Shu bois, tumanimizdagi har bir ziyoratgohni nafaqat ziyorat maskani, balki tariximiz va ma'naviyatimizning qimmatli manbasi sifatida qadrlashimiz, ularning tarixi haqida ma'lumotlarni to'plash va kelajak avlodga yetkazishimiz zarur. **Zero, ajdodlar merosini asrash — tariximizni asrash, tariximizni asrash esa kelajagimizni asrashdir.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Eraliev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. **O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari.** — Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2015. — 265 b.

2. Muhammadkarimov A.A., Obidov A.H., Iskandarov Z.S. **Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari.** – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 140 b.
3. Davletov S., Abdullayev M. **O‘zbekistonning me‘moriy yodgorliklari tarixi.** – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 160 b.
4. Norqulova Sh. **O‘zbekiston tarixiy obidalari.** – 2014.
5. Jo‘rayeva Sh. **O‘zbekistonning tarixiy obidalari.** – Samarqand, 2011.
6. **O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand: Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar.** – Toshkent, 2012. – 296 b.
7. **O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand Shohi Zinda me‘moriy majmuasi.** – Toshkent, 2012. – 552 b.
8. **O‘rta Osiyoning muqaddas qadamjolari tarixi:** maxsus kurs bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Samarqand, 2010.
9. **O‘zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar.** – Toshkent, 2011.
10. **Ipak yo‘li afsonalari.** – Toshkent, 1993.
11. **O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Шарипов. А. **Фориш:одамлар ва удумлар.** Рисола.- Самарқанд:”TURON NASHR” нашриёти, 2020.-144 бет.

## Mundarija

|                                          |   |
|------------------------------------------|---|
| So‘zboshi-----                           | 3 |
| “Jondahor ota”ziyoratgohi -----          | 4 |
| “Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi ----- | 6 |
| “Xonbandi” qadamjosi-----                | 7 |
| “Xo`ja bog`bon ota” ziyoratgohi-----     | 8 |
| “Narvon ota” ziyoratgohi-----            | 9 |

|                                          |    |
|------------------------------------------|----|
| “Xazrati Zaynulobiddin” ziyoratgohi----- | 10 |
| “Hasan ota” ziyoratgohi-----             | 11 |
| “Teshiktosh chillaxonasi”-----           | 11 |
| “Qizuchgan qadamjosi”-----               | 12 |